

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 72 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaeovich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	



QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATIVI BOSHQARUV TIZIMIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich

TDIU PhD, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan hamda uning yangi tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati tizimli yondashuv asosida yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotda korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishga tizimli tahlil va kompleks kontseptual yondashuv usullari asosida yondashilib, muallif tomonidan nazariy-uslubiy ahamiyatga ega deb topilgan hisob siyosati orqali boshqaruvning uslubiy asoslari belgilangan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi kooperativi, aksiyadorlik jamiyati, buxgalteriya hisobi, hisob siyosati.

Abstract: In this article, the organizational and economic foundations of the organization of accounting in the agricultural cooperative management system are studied, and its content as a new concept is highlighted based on a systematic approach. Also, in the study, using the methods of systematic analysis and complex conceptual approach to the organization of accounting in the corporate management system, the methodological foundations of accounting policy, which are considered theoretically and methodologically important by the author, are defined.

Key words: agricultural cooperative management, joint stock company, accounting, accounting policy.

Аннотация: В данной статье исследованы организационно-экономические основы организации бухгалтерского учета в системе сельскохозяйственный кооператив управления, выделено его содержание как новой концепции, основанной на системном подходе. Также в исследовании с использованием методов системного анализа и комплексного концептуального подхода к организации бухгалтерского учета в системе корпоративного управления определены методологические основы учетной политики, которые автор считает теоретически и методологически важными.

Ключевые слова: сельскохозяйственный кооператив управление, акционерное общество, бухгалтерский учет, учетная политика.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin tadbirkorlik faoliyatini yuritish va korporatsiyalarni boshqarish usullari yangi darajaga olib chiqildi. Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv andozalarini joriy etishning iqtisodiy jihatlari, korporatsiyalar boshqaruvining samarali tizimini shakllantirish, boshqaruvning tamoyillari hamda uni tuzishga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar hozirgi vaqtda dolzarb hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlay oladigan ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy hamda tashkiliy asoslarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Barchamizga ma'lumki, mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan yillarida to'plangan, oz bo'lsa-da, mazmunli tajribamiz bir haqiqatni takror va takror tasdiqlamoqda. Ya'ni, faqat demokratik o'zgarishlarning hayotda o'zini oqlagan modellari negizida chuqur asoslangan siyosiy yo'l va islohotlarni izchil amalga oshirish, bugungi dunyodagi tarixiy va real voqelikni e'tiborga olish hisobidagina ushbu islohotlarning muvaffaqiyati va samaradorligini, davlat va jamiyatning, aholi turmush darajasining yuksak va barqaror sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv maqsadlarini belgilash bo'yicha professor M. B. Xamidullinning fikricha, "Korporativ strategiyalarni moliyalashtirish usullari va mexanizmlari" maqolasida qayd etilganidek, an'anaviy neoklassik iqtisodiy modelga ko'ra, har qanday kompaniya foydani bir marta olish uchun emas, balki uzoq muddat davomida ta'minlash uchun uni maksimalashtirishga intiladi. Mazkur nazariya doirasida boshqa rasmiy mezonlar ham qo'llaniladi. Xususan, kompaniyaning umumiy samaradorligini baholash uchun "aksiyaga daromad" ko'rsatkichi



keng qo'llaniladi, investitsiyalar samaradorligini baholash uchun esa "investitsiyalar rentabelligi" ko'rsatkichidan foydalanish mumkin¹.

Kooperativi boshqaruv mexanizmiga turlicha qarash va yondashuvlar mavjud. Jumladan, mamlakatimizda kooperativi boshqaruv sohasida taniqli olimlardan biri D.Suyunovning fikricha², kooperativi boshqaruv mexanizmi korporativ mulk shakliga kiruvchi subyektlarning belgilangan maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy munosabatlarni harakatga keltiruvchi elementlar majmuidir.

Shuningdek, Rossiyalik mualliflardan biri I.Shitkina³ korporativ boshqaruv mexanizmlarini, mohiyatiga ko'ra, korporativ nazoratni o'rnatish vositalari, deb talqin etgan. Yana bir rossiyalik olim T.Pochekaylo⁴ korporativ boshqaruv mexanizmini ikki jihatdan tushunadi: iqtisodiy va huquqiy jihatlardan. Iqtisodiy jihatdan, korporativ boshqaruv mexanizmi - boshqaruv tamoyillari, usullari va shakllari majmui bo'lib, uning yordamida korporatsiya rahbariyati uning investitsiya jozibadorligini oshirish, qiymatini kapitalizatsiya qilish, aktsiyadorlik kapitalini samarali qo'llash maqsadida iqtisodiy qonunlardan foydalanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilish mavzusi doirasidagi izlanishlarda kuzatish, qiyoslash, tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, manbalarni sharhlash, tizimli yondashuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi kooperativida buxgalteriya hisobini yuritish masalasiga kelsak, uni tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 13.04.2016 yildagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son⁵ Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Jumladan, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bilan belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni korxonah rahbari amalga oshiradi. Rahbar quyidagi huquqlarga ega:

Bosh buxgalter rahbarligida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalter xizmatidan foydalanish;

Buxgalteriya hisobini shartnoma asosida ixtisoslashtirilgan buxgalteriya firmasiga yoki tarkibiga buxgalteriya subyekti ham kiradigan xo'jalik birlashmasining markazlashtirilgan hisobga olish bo'limiga yuklash;

Buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish.

Qishloq xo'jaligi kooperativini boshqarishda hisob ma'lumotlarini shakllantirish va buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy tamoyillari hisob yuritish siyosatida belgilab qo'yiladi.

Qo'shma korxonalarining hisob yuritish siyosatini shakllantirishda buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun tanlangan usullar me'yoriy hujjatlar e'lon qilingan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan boshlab qo'llaniladi. Hisobot yili davomida yangi tuzilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar bundan mustasno.

Qishloq xo'jaligi kooperativini boshqarish tizimida buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi — foydalanuvchilarni (ya'ni korxonah rahbarlaridan tortib, hukumat rahbarlarigacha) qo'shma korxonah mablag'larining shakllanishi, ularning samarali va maqsadli ishlatilishi bo'yicha o'z vaqtida hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdan iborat.

Korxonah rahbarlari o'zlari rahbarlik qilayotgan korxonahda mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi, shuningdek, korxonahning mol-mulki va majburiyatlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda buxgalteriya hisobining ma'lumotlariga asoslanadi.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini to'liq, aniq va o'z muddatida yuritish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

Buxgalteriya hisobini qonun hujjatlariga amal qilgan holda yuritish, hisob ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish;

Buxgalteriya hujjatlarini o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish, amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini oldindan nazorat qilish;

Korxonah mablag'larini, biznes-rejada ko'zda tutilgan maqsadlarga to'g'ri sarflanishini, shuningdek, pul mablag'lari va moddiy qimmatliklarning butligini muntazam nazorat qilish;

1 M.B. Xamidulin. Korporativ strategiyalarni moliyalashtirish usullari va mexanizmlari. Korxonah boshqarish jurnali. 2007-y №5-6. 4-b.

2 Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. — T.: Akademiya, 2006. — 116 b.

3 Почекайло Т.Н. Формирование организационно-экономического механизма корпоративного управления. Автореф. дис. ...канд. экон. наук. — Тюмень: Тюм.ГУ, 2016. — 22 с.

4 Долгопятова Т. Модели и механизмы корпоративного контроля в российской промышленности (опыт эмпирического исследования). // Вопросы экономики, 2017. - №5. - С.46-60.

5 <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>



Tizimga kiruvchi korxonalarda buxgalteriya hisobining qonunchilik talablariga muvofiq yuritilishini nazorat qilish;

Xodimlarning ish haqlari va unga tenglashtirilgan to'lovlarni belgilangan tartibda va o'z vaqtida hisoblab chiqish;

Pul mablag'lari, hisob-kitoblar, moddiy qimmatliklar va boshqa aktivlar hamda majburiyatlarni inventarizatsiya qilishda qatnashish, natijalarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish hamda buxgalteriya hisobida aks ettirish;

Moddiy javobgar shaxslarga ularning zimmasidagi moddiy qimmatliklarning butligini saqlash va hisobini yuritish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish;

Moddiy qimmatliklarni olish uchun berilgan ishonchnomalarning hisobini yuritish va ulardan to'g'ri foydalanilishini nazorat qilish;

Moliyaviy hisobotlarni belgilangan muddatlarda tuzish va topshirish;

Korxonra rahbariga tasdiqlash uchun biznes-reja yoki xarajat smetalarini hamda ularga ilova qilinadigan hisob-kitoblarni tuzish (agar rejalashtirish bo'limi yoki ushbu vazifani bajaruvchi lavozim shtatlar jadvalida nazarda tutilmagan bo'lsa);


Asosiy vositalar va boshqa moddiy qimmatliklarning saqlanish va foydalanish joylarida butligini muntazam nazorat qilish;

Buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari hamda biznes-rejani (ilova hisob-kitoblari bilan birga) saqlashni ta'minlash.

Qishloq xo'jaligi kooperativi — bu qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshirish uchun pay usulida, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan mustaqil tijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy rasmiylashtirilishini, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq, kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishni anglatadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruvi uning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu model boshqaruv obyekti sifatida korporatsiyaning xususiyatlarini aks ettiradi. U aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorligi hamda ularning korporatsiyani rivojlantirish va boshqarishdagi roliga asoslanadi. Shuningdek, aksiyadorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, mulkchilik huquqining amalga oshirilishini nazarda tutadi, butun kooperativ rivojlanish strategiyasiga asoslanadi va kooperativ madaniyatini, ya'ni xulq-atvor tamoyillari, umumiy an'analar kompleksini shakllantiruvchi boshqaruv sifatida tavsiflanadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruvi tushunchasiga yagona ta'rif mavjud emas. Jahon banki ta'rifiga ko'ra, qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruvi — qonunchilik, me'yorlar va xususiy sektor amaliyotining shunday birikmasidan iboratki, u kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. Natijada aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyat manfaatlariga rioya qilingan holda, o'z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni oshirish orqali kompaniya o'z mavjudligini saqlab qolishga erishadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda milliy kooperativi boshqaruv modeli tuzilmasi⁶

6 Tadqiqot davaomida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida “korporativ boshqaruv” tushunchasi kompaniya ma’muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslar o’rtasidagi munosabatlar majmuasi sifatida ta’riflangan.

Boshqa manbalarga ko’ra, korporativ boshqaruv quyidagicha izohlanadi:

Kompaniya faoliyati samaradorligini ta’minlash hamda mulkdorlar va boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish bo’yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlar) o’rtasidagi o’zaro munosabatlar tizimi;

Korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashuvi natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal etishga qaratilgan barcha qonunlar, me’yorlar, nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

Samarali boshqaruvni tashkil etishda asosiy manfaatdor tomonlar manfaatlarini birlashtiruvchi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Xo’jalik faoliyatini korporativ asosda tashkil qilish imkoniyatlari ulardan samarali foydalanish orqali firmalararo munosabatlarni modellashtirishga keng yo’l ochadi. Bu imkoniyatlar korporatsiyalarni yaratish mexanizmlariga asoslanadi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Aksiyalar chiqarish orqali cheklanmagan sonli investorlarning mablag’larini jalb qilish imkoniyati mavjud bo’lib, bu investorlar jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo’ladi.

Boshqaruvdagi muammolarni hal etish yengillashadi. Tashkiliy rasmiylashtirishning to’liqligi va vakolatlar hamda javobgarliklar taqsimotining reglament asosida amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari o’rtasida nazorat funksiyalarini aniq ajratib beradi. Bu esa boshqaruv jarayonining professionallashtirishiga xizmat qiladi.

Aksiyadorlar tarkibiga kirish va chiqish tartibining soddaligi manfaatdor shaxslar o’rnini tez va qulay almashtirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, investitsion muhitda dinamiklik yuqori bo’lgan sharoitlarda bu yondashuv moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Cheklangan javobgarlik tamoyili risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu tamoyil aksiyadorlar va boshqaruvchilar o’rtasida risklarni taqsimlash imkonini beradi va yirik korporatsiyalarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Fikrimizcha, korporativ boshqaruvning bunday shakllarining vujudga kelishi mavjud hisob tizimida noan’anaviy buxgalteriya hisobining yangi shakl, usul va yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etadi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobi tizimining dolzarb muammolaridan biri – aksiyadorlik jamiyatlarining o’ziga xos jihatlarni to’liq aks ettiruvchi va zamonaviy buxgalteriya hisobi shakllaridan biri bo’lgan korporativ buxgalteriya hisobining kontseptual asoslarini yaratish masalasidir.

Respublikamizda hisob tizimida korporativ buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o’ziga xos jihatlari mavjud bo’lib, u davlat va sarmoyadorlar manfaatlarini birdek ko’zlagan holda ularning mulkini himoya qilish vazifasini bajaradi. Chunki O’zbekistonda iqtisodiy erkinlik berish jarayonlari, davlat mulkini xususiyashtirishning dastlabki bosqichlarida strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlari va kompaniyalarga aylantirishda ularning aksiyalarining asosiy qismi davlat ulushiga to’g’ri kelgan.

Korporativ boshqaruvda buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi — mablag’lar va ularning kelib chiqish manbalari bo’yicha axborot bilan ta’minlash, aksiyadorlik jamiyatlarining mablag’lari ishlatilishi ustidan nazorat o’rnatish va kompaniya istiqbollarini aniqlashda faol qatnashishdan iborat.

Korporativ buxgalteriya hisobi boshqa soha va tarmoqlarda qo’llanilmaydigan qimmatli qog’ozlar (aksiyalar) va dividendlar hisobini yuritishni o’z ichiga oladi. Bu hisob faqat bitta aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy, boshqaruv va ishlab chiqarish xususiyatlariga mos tarzda shakllantiriladi. Hisob yuritish siyosati ham faqat shu kompaniya manfaatlariga qaratilgan bo’ladi. Agar xo’jalik yurituvchi subyekt yagona mulk egasi manfaatlariga asoslangan holda faoliyat ko’rsatayotgan bo’lsa, bunday korxonalarda korporativ buxgalteriya hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, korporativ buxgalteriya hisobi bir nechta mulkdor manfaatlarini uyg’unlashtiruvchi hisob shaklidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy bozorlarning jadallik bilan rivojlanishi mulkchilikning aksiyadorlik shakli kengayishiga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Ushbu shakl tadbirkorlik faoliyatida investorlar uchun kapitalni jamlash imkonini beradi. Natijada, muayyan moliyaviy resurslarga ega bo’lgan investorlarning bo’sh mablag’lari yagona maqsad va biznes yo’nalishida korporativ shaklda birlashadi⁷.

Kooperativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobining tashkiliy tuzilishi kompaniyalar va subyektning moliya tizimi tarkibi hamda vazifalariga bevosita bog’liqdir. Subyekt moliyasi quyidagi uch asosiy vazifani bajarishga yo’naltirilgandir:

7 Ibragimov A., Ochilov I., Qo’ziyev I., Rizaev N., Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. – 451 b.



Korxonalar aktivlarini joylashtirish siyosatini to'g'ri tashkil qilish;
 Investitsiyalar uchun zarur moliyaviy resurslarni aksiyadorlik kapitalini shakllantirish orqali, muqobil qarorlar asosida jalb etish va kapital tarkibining optimal tuzilmasini shakllantirish;
 Dividend siyosatiga qat'iy rioya etilishi ustidan nazoratni yo'lga qo'yish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda asosiy axborot manbai sifatida buxgalteriya hisobiga alohida mas'uliyat yuklanadi. Aynan shu talablar asosida har bir kompaniyaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi mustaqil hisob siyosati shakllanadi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarining hisob siyosatida quyidagi asosiy yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

Aksiyadorlarning investitsiyasi hisobidan shakllangan asosiy va aylanma mablag'lar hisobini zamonaviy usullar va xalqaro standartlarga asoslangan holda yuritish;

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishni hisobga olish va nazorat qilishni xalqaro tamoyillar asosida tashkil etish;

Dividendlar va ularga tegishli soliq hisobini aksiyadorlar manfaatlarini inobatga olgan holda hamda mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati asosida tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida bayon etilgan fikrlar, tushunchalar va takliflar respublikamiz iqtisodiyotida zamonaviy tus olayotgan korporativ boshqaruv tizimining asosiy axborot bazasi bo'lgan hisob tizimida korporativ buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning kontseptual asoslarini ishlab chiqishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016 yil 13 aprel. № O'RQ-404.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida" (2024 yil, 8 noyabr O'RQ-995-son.).
4. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS Schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. -T.: O'BAMA. 2002.
5. Jo'rayev N., Abduvaxidov F., Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet.
6. M.B. Xamidulin. Korporativ strategiyalarni moliyalashtirish usullari va mexanizmlari. Korxonani boshqarish jurnali. 2007-y №5-6. 4-b.
7. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. (ISBN: -13: 978-1-133-60760-1) USA, 2014. 25th Edition.
8. Chia-Lin Chang, Michael McAleer, (2016) «Quality weighted citations versus total citations in the sciences and social sciences, with an application to finance and accounting», Managerial Finance, Vol. 42 Issue: 4, pp.324-337, <https://doi.org/10.1108/MF-12-2014-0315>.
9. Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 116 b.
10. Почкайло Т.Н. Формирование организационно-экономического механизма корпоративного управления. Автореф. дис. ...канд. экон. наук. – Тюмень: Тюм.ГУ, 2016. – 22 с.
11. Долгопятова Т. Модели и механизмы корпоративного контроля в российской промышленности (опыт эмпирического исследования). // Вопросы экономики, 2017. - №5. – С.46-60.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>